



**QASHQADARYO VILOYATI
G'UZOR TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I**

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor shahri, Mustaqillik ko'chasi, 14-uy. Tel: 75.552-13-60

2021 - yil 14 - oktabr

265-4-56-Q/21

G'uzor tuman hokimligi

**Voyaga yetmagan 2011 yil 30 dekabr kuni tug'ilgan Shoyimov Sherbek
Shonazar o'g'lini o'z oilasiga qaytarish to'g'risida**

Tuman hokimligi huzuridagi vasiylik va homiylik komissiyasining 2021 yil 15 iyuldagi 20-sonli "G'uzor tumani "Yangikent" MFYda yashovchi fuqaro Shopiyev Shonazarni o'g'li 2011 yil 30 dekabr kuni tug'ilgan Shoyimov Sherbek Shonazar o'g'lini o'z oilasiga qaytarish to'g'risida"gi, tuman xalq ta'limi bo'limi huzuridagi vasiylik va homiylik organining 2021 yil 1 iyundagi 83-sonli xulosalarini va boshqa taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqib, voyaga yetmaganning manfaatlarini ko'zlagan holda, O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 21-bob, 173, 174 - moddalariga, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hokimligi huzuridagi vasiylik va homiylik komissiyasining 2021 yil 15 iyuldagi 20-sonli "G'uzor tumani "Yangikent" MFYda yashovchi fuqaro Shopiyev Shonazarni voyaga yetmagan o'g'li 2011 yil 30 dekabr kuni tug'ilgan Shoyimov Sherbek Shonazar o'g'lini o'z oilasiga qaytarish to'g'risida"gi xulosasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Voyaga yetmagan Shoyimov Sherbek Shonazar o'g'li o'z oilasiga qaytarilsin.

3. Voyaga yetmagan Shoyimov Sherbek Shonazar o'g'lining barcha

huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda moddiy ta'minlash otasi Shopiyev Shonazarga yuklatilsin.

4. Tuman hokimining 2020 yil 18 sentyabrdagi "Shoyimov Sherbek Shonazar o'g'lini vasiylikka berish to'g'risida"gi HQ-811/09-sonli qarorini bekor qilinsin.

5. Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri R.Eshqobilova mazkur qarorning ijrosini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими



Б.Суюнов